

HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI YAGONA VERTIKAL BOSHQARUV MEXANIZMINI YARATISHNING HUQUQIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.034>

Abdulazizov Zayniddin Zarifjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Ma'muriy ishlar bo'yicha

sudlov hay'ati katta konsultanti

zayniddinabdulazizov11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdavlat boshqaruvi tizimida vertikal boshqaruv mexanizmini yaratishning tashkiliy-huquqiy asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot avvalo davlat boshqaruvi nazariyasiga oid yondashuvlarni, ya'ni markazlashgan boshqaruv tizimi, aloqa jarayonlarini hamda yuqori turuvchi davlat organlarning hujjatlarni ijro qilish mexanizmlarini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Tezisdavlat O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida olib borilayotgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi o'rganilib, mavjud tizimda muammo va kamchiliklarni o'rganib chiqqan holda vertikal integratsiyaning kuchaytirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy o'zgarishlar, normativ bazani takomillashtirish tamoyillari hamda raqamli boshqaruvning ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu tizim orqali yagona boshqaruv modelining davlat siyosatida barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish, rezerv resurslardan oqilona foydalanish hamda mahalliy boshqaruvni samarali koordinatsiya qilishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, huquqiy mexanizmlarni yangilash, institutsional tuzilmani modernizatsiya qilish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Kalit so'zlar. Davlat boshqaruvi, tashkiliy-huquqiy, tizim, vertikal boshqaruv tizimi, modernizatsiya qilish, takomillashtirish, vertikal integratsiya, islohotlar, standartlar va mexanizmlar, norma, amaliyot, real-time nazorat, elektron hukumat.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ЕДИНОГО МЕХАНИЗМА ВЕРТИКАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ

Аннотация. В данном тезисе глубоко проанализированы организационно-правовые основы создания механизма вертикального управления в системе государственного управления. Исследование начинается с рассмотрения подходов к теории государственного управления, то есть централизованной системы управления, процессов коммуникации и механизмов исполнения документов вышестоящими государственными органами. В тезисе рассматриваются реформы, проводимые в

системе государственного управления Узбекистана, их правовые основы и практическая эффективность, а также организационные изменения, необходимые для усиления вертикальной интеграции, принципы совершенствования нормативной базы и цифрового управления на основе изучения проблем и недостатков в существующей системе. Анализируется их значение. Через эту систему обосновывается роль единой модели управления в стабильности государственной политики, оперативном принятии решений, рациональном использовании резервных ресурсов и эффективной координации местного управления. Также заключается в разработке конкретных практических рекомендаций по обновлению правовых механизмов, модернизации институциональной структуры и цифровизации государственных услуг.

Ключевые слова: Государственное управление, организационно-правовая, система, вертикальная система управления, модернизация, совершенствование, вертикальная интеграция, реформы, стандарты и механизмы, норма, практика, контроль в режиме реального времени, электронное правительство.

LEGAL BASIS FOR CREATING A UNIFIED VERTICAL MANAGEMENT MECHANISM OF THE PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM IN THE PROCESS OF COMPREHENSIVE REGIONAL DEVELOPMENT

Abstract. This thesis provides a deep scientific analysis of the organizational and legal basis for creating a vertical management mechanism in the public administration system. The research begins, first of all, with an examination of approaches to the theory of public administration, that is, a centralized management system, communication processes, and mechanisms for the execution of documents by higher state bodies. The thesis examines the reforms being carried out in the public administration system of Uzbekistan, their legal foundations and practical effectiveness, and, having studied the problems and shortcomings in the existing system, analyzes the organizational changes necessary to strengthen vertical integration, the principles of improving the regulatory framework, and the mechanisms of digital governance is analyzed. Through this system, the role of the unified management model in state policy is substantiated for stability, prompt decision-making, rational use of reserve resources, and effective coordination of local governance. It also consists of updating legal mechanisms, modernizing the institutional structure, and developing specific practical recommendations for the digitalization of public services.

Keywords. Public administration, organizational and legal, system, vertical management system, modernization, improvement, vertical integration, reforms, standards and mechanisms, norm, practice, real-time control, e-government.

KIRISH

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida davlat boshqaruvini to'g'ri tashkil etish va uni amalga oshirish – ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini erkinlashtirish, jamiyat va davlat oldida turgan asosiy vazifalarni ro'yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va tub boshqaruv islohotlari davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish, boshqaruv jarayonlarining ochiqligi va samaradorligini oshirish, markaziy va mahalliy boshqaruv tuzilmalari o'rtasida izchil va funksional o'zaro bog'liqlikni shakllantirish kabi strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilab bermoqda. Shu bilan birga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks, tizimli va uzoq muddatli strategik yondashuv asosida tashkil etish talabi ham kun tartibiga qat'iy ravishda kirib keldi. Mamlakatda olib borilayotgan transformatsion jarayonlar, xususan, davlat apparatining qayta tashkil etilishi, vakolatlarning qayta ko'rib chiqilishi, mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yagona, uyg'un va uzluksiz ishlaydigan vertikal boshqaruv tizimini yaratish zaruratini keskin kuchaytirmoqda. Chunki davlat boshqaruvi samaradorligining muhim sharti – barcha darajadagi boshqaruv organlarining yagona boshqaruv jarayoni doirasida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishidir. Shuningdek, Ijro hokimiyati – O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi muhim kategoriyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan, barcha rivojlangan davlatlar singari, hokimiyat tizimining uchga bo'linishi prinsipini, ijro hokimiyati tushunchasini mustahkamladi. Jumladan, Konstitutsiyaning 11-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 89-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Demak, ijro hokimiyati tushunchasi, birinchi navbatda asosiy qonunda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari. “davlat boshqaruvi” atamasi ham qonun hujjatlarida tez-tez uchrab turibdi. Bularning har birining mazmuni va ularning o'zaro munosabati qanday, degan savol vujudga kelishi mumkin. Ijro hokimiyati – bu ma'lum bir munosabatlar tizimi bo'lib, uning asosiy elementlaridan birini – boshqaruv tashkil etadi. Ijro hokimiyati – davlat apparati maxsus tuzilmalari (davlat boshqaruv organlari)ning faoliyati orqali ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Demak, davlat boshqaruvi – davlat faoliyatining shunday turiki, uning doirasida davlat hokimiyatining bir bo'laki bo'lgan ijro hokimiyati amalga oshiriladi.

YU.M.Kozlovning ko'rsatishicha, ma'muriy huquq fanini o'rganish – ijro hokimiyati tushunchasini va uning ijtimoiy ahamiyatini aniqlab olishdan boshlanadi. Ijro hokimiyati – alohida turdagi kategoriya hisoblanadi. Ijro hokimiyati - davlat hokimiyatining bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu masala bo'yicha qabul qilingan qarorlarni ijro etishdan iboratdir. Ijro hokimiyati faoliyati jarayonida ijrochilik bilan bir vaqtda uning ikkinchi asosiy elementi – farmoyish berish ham vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ijrochilikni farmoyish berishsiz tasavvur qilish mumkin emas.⁶

Shuningdek, Ijro hokimiyati mohiyatiga ko'ra, A.P.Alexin fikricha, davlat boshqaruvi faoliyatining mazmunini tashkil etadi hamda birinchi navbatda uning funksional yo'naltirilganligini (ijrochilikni) ifoda etadi.⁷

HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadda hududlarni sektorlarga bo'lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan manzilli muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi.⁸ Hududlarni kompleks rivojlantirish masalasi zamonaviy davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda hududiy rivojlanish faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat va infratuzilmani rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, hududlarni kompleks rivojlantirish tizimini nazariy jihatdan tahlil qilish davlat siyosatini shakllantirish va uni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati monitoringi bir qator kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan; birinchidan, sektorlar faoliyatida aniqlangan muammolarni bartaraf etish hamda sektor a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirishda sektor rahbarlarining zarur tashkiliy va moliyaviy vakolatlarga ega emasligi sektorlarning to'liq faoliyat yuritishida hamda muammolarni o'z vaqtida hal etishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shuningdek, respublika miqyosida sektorlar ishini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi yagona tizimning mavjud emasligi sektorlar faoliyati boshqaruvida tarqoqlikni yuzaga keltirmoqda hamda hududlarda sektorlar faoliyatiga oid qonun hujjatlari normalarining turlicha talqin qilinishiga olib kelmoqda. sektorlarda o'rganishlar natijalari umumlashtirilmayotganligi, statistik hisobotlarni yuritish amaliyoti o'z holiga tashlab qo'yilganligi, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

⁶ Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юристъ, 2003. 7-8-b.lar

⁷ Алексин А.П., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации. М., 1994. 13-b.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 08.01.2019 yildagi PQ-4102-son Qarori

texnologiyalarining joriy etilmaganligi amalga oshirilgan ishlarni aniq sarhisob qilishga va muammolarni tizimlashtirishga imkoniyat bermayapti. Sektorlar rahbarlari faoliyatini baholash tartibining murakkabligi, tizimli ravishda ular malakasini oshirish mexanizmining joriy etilmaganligi, sektor a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning yo'lga qo'yilmaganligi ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish hududlarni hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha birqacha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 08.01.2019 yildagi PQ-4102-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 23.08.2021 yildagi 536-son qarorlari qabul qilingan. Ushbu qarorni qabul qilishdan maqsad. Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi muammolarning hal etilishi, aholi bilan ochiq, to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kuchaytirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlarning "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" bilan ishlash yuzasidan faoliyatiga baho berish hamda o'zining fidokorona mehnati bilan namuna ko'rsatgan sektorlarni munosib rag'batlantirish ko'zda tutilgan.⁹ Shuningdek, Hududlarni kompleks rivojlantirish orqali erishiladigan asosiy imkoniyatlar investitsiya jalb qilish, hududning infratuzilmasi va ishlab chiqarish salohiyati rivojlanganida xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish osonlashadi. Raqobatbardosh iqtisodiyot shakillantiradi. Mahalliy biznesni rivojlantirishga imkoniyat yaratib beradi. Hamda Aholining turmush darajasini yashilanadi. Jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash orqali yashash sifatini yaxshilanadi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy barqarorlikka erishiladi. Ya'ni hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, urbanizatsiya va migratsiya bilan bog'liq muammolarni yengillashtirish mumkin bo'ladi. Hududlarni kompleks rivojlantirish iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqaruv imkoniyatlarini bir vaqtning o'zida oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali hududlar barqaror, raqobatbardosh va yashash uchun qulay muhitga ega bo'ladi, shuningdek, aholining turmush darajasi va innovatsion salohiyati sezilarli darajada yaxshilanadi.

O'ZBEKISTONDA HUDUDIY BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARI.

Hududiy boshqaruv tizimi davlatning barcha darajalarida siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda hududiy boshqaruv markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi vazifalarni aniq belgilash orqali amalga oshiriladi va buning huquqiy asoslari Konstitutsiya, qonunlar hamda

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 23.08.2021 yildagi 536-son qarorlari

normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Hududiy boshqaruvning huquqiy asoslarini o'rganish, hududlarni samarali rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha choralar ko'radi. Shu bilan birgalikda, Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir. Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi. Hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi qonun bilan belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari doirasiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash ham kiradi. Hamda Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlariga ham hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga doir vakolatlari mavjud.¹⁰ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. O'zbekistonda hududiy boshqaruvning huquqiy asoslari davlat siyosatini hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan tizimli va barqaror amalga oshirishga xizmat qiladi. Konstitutsiya, qonunlar, prezident qarorlari va mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi vakolatlarni aniq belgilab, hududiy boshqaruvning samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu orqali O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish va investitsion salohiyatni oshirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Hududlarni kompleks rivojlantirish jarayonida davlat boshqaruvi tizimini yagona vertikal boshqaruv mexanizmi asosida tashkil etish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy rivojlanish samaradorligi ko'p jihatdan markaziy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlar, mas'uliyat va resurslarning aniq huquqiy tartibga solinganligiga bog'liq. Yagona

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 30 aprel (yangi tahrir). 123-modda.

vertikal boshqaruv mexanizmini shakllantirish hududiy boshqaruvda takrorlanish, nomuvofiqlik va institutsional bo'shliqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu mexanizm orqali strategik qarorlarning quyi bug'inlarga izchil yetkazilishi, hududiy darajada esa ularning ijrosi va monitoringi samarali yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, vertikal boshqaruvning huquqiy asoslari hududiy manfaatlar va mahalliy tashabbuslarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Tahlil shuni ko'rsatadiki, normativ-huquqiy hujjatlarning izchil tizimi, vakolatlarining aniq chegaralanishi hamda davlat boshqaruvida javobgarlik va hisobdorlik mexanizmlarining mustahkamlanishi hududlarni kompleks rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, strategik rejalashtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va hududiy dasturlarni amalga oshirishda yagona vertikal boshqaruv mexanizmining huquqiy ta'minoti muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, hududlarni kompleks rivojlantirish jarayonida davlat boshqaruvi tizimida yagona vertikal boshqaruv mexanizmini yaratish huquqiy asoslarning takomillashuvini, boshqaruv samaradorligining oshirishini hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning barqaror rivojlanishi va hududiy siyosatning izchil amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, amaldagi tahrir.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-son "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 23 avgustdagi 536-son "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
- 5) O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni.
- 6) O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni.

II. MONOGRAFIYALAR VA O'QUV ADABIYOTLARI

1. Kozlov Yu.M. Administrativ huquq. – Moskva: Yurist, 2005.
2. Alexin A.P. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyati nazariyasi. – Moskva: Norma, 2004.

3. Xodjayev B., Rahmonov O. Davlat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
4. Saidov A.X. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Adolat, 2019.
5. Ismoilov B.I. Hududiy boshqaruv va mahalliy hokimiyat tizimi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

